

**KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARING TAFAKKUR  
XUSUSIYATLARINI NAMAYON BO'LISHI**

*Xayitgul Muzaffarova*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika kafedrasi p.f.f.d.,  
(PhD) (xayitgulmuzaffarov@gmail.com)*

*Abdullayev Xolmirza*

*Maxsus pedagogika, defektologiya (logopediya) mutaxassisligi magistri*

**Annotatsiya:** Maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning tafakkur xususiyatlarini namayon bo'lishi, bolaning o'sib, bilim va tajribalarining ortib borishi jarayonida rivojlanishi, tashqi olamni sezish va idrok qilish orqali bilishi, narsalar bilan qanchalik ko'p munosabatda bo'lganlari sari bu narsalar o'rtasidagi o'xshashlik tomonlarini payqay boshlashi haqidagi fikr va mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Tafakkur, harakat, ko'zi ojiz, sezgi, idrok, jismlarni qo'l bilan idrok qila olish, ko'rgazmali obrazli, shakl, harorat.

Tafakkur ruhiy hayotimizning eng murakkab formalaridan biridir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan uni bevosita aks ettiramiz. Soddarq qilib aytganda, tashqi muhitdagi narsa va hodisalar o'rtasida ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib bo'lmaydigan ichki munosabatlar hamda qonuniyatlar bor. Ana shu ichki bog'lanish hamda qonuniyatlarni biz tafakkur orqali bilib olamiz. Demak, tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar va munosabatlarning ongimizda aks ettirilishiga aytiladi. Masalan, bizga ma'lum bo'lgan quyoshning yetti xil nuridan tashqarii yana bir necha xil ko'rinmaydigan nurlari bor. Bu ko'rinmaydigan nurlarni odatda ultrobinafsha infroqizil nurlari deb yuritiladi. Bunday nurlarning borligini biz tafakkur qilish orqali bilamiz. Tafakkurning to'la hamda chuqur aks ettirishini olimlar tasavvur bilan solishtirib shunday deganlar: «Harakatning hammasini mukammal tasavvur qilib bo'lmaydi, masalan sekundiga 300.000 km tezlikdagi harakatni tasavvur qilish mumkin emas, tafakkurning esa bunga kuchi yetadi va yetmog'i lozim».

Ma'lumki biz konkret narsa va hodisalarni idrok qilamiz va tasavvur etib, shunga asoslanib fikr yuritamiz.

Masalan: biz uyimizdagi yozuv stolini idrok qilishimiz va undan so'ng uni tasavvurimizda tiklashimiz ham mumkin. Lekin, biz konkret bir stol emas, balki stol-stul, divan va umuman mebil hamda boshqa narsa to'g'risida fikr qilishimiz mumkin. Ana shu nuqtai nazardan olganda tafakkur voqyelikning umumlashtirilib, aks ettirilishidan iboratdir. Shuni ham aytib o'tish kerakki, narsa va hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibatli bog'lanishlarni hamda o'zgarish va taraqqiyot qonunlarini bilganligimiz sababli, biz hozirgi paytda bo'lmagan, lekin kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan narsa

va hodisalarni oldindan aytib bera olamiz. Bunga ham faqatgina tafakkur, tasavvur, sezgi, idrok orqali erishish mumkin. Tafakkur hamisha nutq vositasi orqali namoyon bo‘ladi. Nutq va tafakkur uzviy bog‘liq bo‘lgan protsesdir. Shuning uchun ham fikrning realligi tilda namoyon bo‘ladi deb bekorga aytilgan emasdir.

Bilish faoliyati sezish va idrok qilishdan boshlanadi va keyin tafakkurga o‘tib ketishi mumkin. Lekin, tafakkur hatto, eng rivojlangan tafakkur ham hamisha hissiy bilish bilan ya’ni sezgi, idrok va tasavvurlar bilan bog‘langan bo‘ladi. Tafakkur faoliyati o‘zining butun materialini faqat bitta manbadan, ya’ni hissiy bilishdan oladi. Tafakkur sezgilar va idrok qilish jarayonlari orqali tashqi olam bilan bevosita bog‘lanadi hamda shu tariqa olamni aks ettiradi. Tafakkur qilish davomida tashqi olamni bundan keyin yanada chuqurroq bilish amalga oshiriladi. Buning natijasida narsalar, voqealar, hodisalar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘lanishlarni ajratish, yechish mumkin bo‘ladi. Kishi tafakkur jarayonida sezgi, idrok, tasavvur ma’lumotlaridan foydalanar ekan. Shu bilan birga hissiy bilish chegarasidan chetga chiqadi. Tashqi olamdagи shunday hodisalarni ularning xususiyatlari va o‘zaro munosabatlarini bila boshlaydiki, ular sezgilarimizda mutlaqo berilmagan bo‘ladi, shuning uchun umuman bevosita kuzatish mumkin bo‘lmaydi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurlarning bilish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni davom ettiradi va rivojlantiradi. Hamma ularning chegaralaridan tashqariga ham chiqib ketadi. Inson tafakkurini u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o‘ylangan bo‘lsa, u so‘zlarda og‘zaki va yozma nutqda shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo‘ladi.

Pedagogik va psixologik eksperimentlar davomida o‘tkazilgan maxsus kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, ayrim o‘quvchilar va xatto katta yoshdagi odamlar ham ko‘pincha biror masalani yechish jarayonida o‘z mulohazalarini ovoz chiqarib, qattiq tovush bilan ifodalay olmagunlaricha juda qiynaladilar. Kishi o‘zining fikr-mulohazalarini boshqalar uchun ovoz chiqarib o‘ylash odatda masalani yechishni yengillashtiradi. So‘zda fikrni ifodalashda, tafakkurning eng muhim zaruriy diskussiv ya’ni mulohazali mantiiqiy bo‘laklarga ajratgan va anglatilgan tomonlari berilgan bo‘ladi. Inson tafakkuri nutq bilan chambarchas bog‘liq.

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va birmuncha shartli klassifikatsiyasi tarqalgandir. Predmetli harakat, ko‘rgazmali, obrazli va mavhum tafakkur. Bog‘cha yosh davrida asosan ko‘rgazmali harakat tafakkuri bo‘ladi. Bola bilayotgan ob‘yektlarini o‘z qo‘llari bilan amaliy ravishda va go‘yo tabiiy ravishda ajratadi, bo‘laklarga bo‘ladi. Hamda idrok qilayotgan narsalarini birlashtiradi, analiz va sintez qiladi.

Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur sodda formada ko‘pincha bog‘cha yoshidagi bolalarda ya’ni to‘rt yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarda paydo bo‘ladi. Bu

yoshdagi bolalarda amaliy harakatlar bilan aloqasi garchi saqlanib qolsa ham, lekin bu aloqa avvalgidek to‘g‘ri va bevosita ob’yektni analiz va sintez qilish davomida qiziqtirayotgan narsani qo‘llari bilan albatta va hamma vaqt ham ushlab ko‘rishi shart emas. Juda ko‘p hollarda, sistemali ravishda ob’yektni amaliy timirskilab ko‘rish jalb qilimaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalar faqat ko‘rgazmali tafakkur obrazli bilan fikr yuritadilar va tushunchalarga ega bo‘lmaydilar. Bolalarning ko‘rgazmali-obrazli tafakkurlari ham ularning idroklariga bevosita va to‘la bo‘ysungan bo‘ladi. Shuning uchun ular ko‘rayotgan narsalarining ko‘zda ravshanroq tashlanib turgan ayrim xususiyatlaridan tushunchalar yordami bilan hozircha chetlasha olmaydilar. Ko‘rish analizatori yordmida dunyoni idrok etish bolaning ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tevarak atrof haqidagi eng kuchli taasurotlar ko‘z bilan idrok etiladi. Bola ko‘rish qobiliyati orqali narsalarning rangi, shakli, xajmi, harakati, uzoq-yaqinligi, fazodagi o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

Ma’lumki, ko‘rish analizatori nurlarni qabul qiluvchi qism ko‘z olmasi (soqqasi) va uning yordamchi apparatidan ko‘zga tushgan tasvirni avval po‘stloq osti markazlariga keyin esa oliy ko‘ruv markazlari joylashgan miya po‘stlog`iga (ensa bo‘laklari) yetkazib beruvchi o‘tkazuvchi yo‘llardan tashkil topgan ana shu analizatorning har qanday qismlaridagi uzgarishlar bolaning ko‘rish qobiliyatiga albatta ta’sir ko‘rsatadi.

Albatta, tabiat insonga ko‘rish qobiliyatining emas, eshitish, hid bilish, teri orqali sezish kabi qobiliyatlarni ham in’om etganki, ular bola nuqsonini ma’lum darajada to‘ldirib, atrof-muhit haqidagi zarur informasiyalarni yetkazib turadi. Demak, ko‘zi ojiz bola va uning ota-onasi sog‘lom insonlar (ko‘zi ko‘radigan) yashayotgan dunyoga bolaning moslashib yashashi lozimligini tushuna olishlari shart. Sayr qilganda, ko‘chada, hovlida o‘ynab yurganda, sirk yoki bolalar teatriga borganda ko‘zi ojiz bola sog‘lom bolalar bilan muloqatda bo‘ladi. Bunday holatlarda sog‘lom bolalar ko‘zi ojiz bolaga ko‘proq e’tibor berib, ko‘plari achingan holda mehribonlik ko‘rsatsa, ba’zi bir bolalar qitmirlig qilib yoki o‘zi bilmagan holda uning ko‘zi ojizligi uchun qo‘pol muomalada bo‘lishlari mumkin. Bunday holatlarga guvoh bo‘lgan ko‘zi ojiz bolaning ota-onalariga vazminlik, sabrlik va xushmuomalalik juda zarur.

Ma’lumki, ko‘zi ojiz bolalar tug‘ilganidan boshlab kattalar mehribonligiga juda sezgir bo‘ladilar. Ayniqsa, erkalatishni juda yoqtiradilar. Shuning uchun onaning erkalatishi, silab-siyupalashi mayin, osoyishta va shoshilmay davomli bo‘lishi kerak. Bolalar kattalar so‘zini tushunmasa ham tovushning past-balandligi yoki nutqning sur’atidan qanday muomalada bo‘layotganini sezadi. Shuning uchun bolani ovqatlantirayotganda, uning kiyimini almashtirayotganda va umuman bola bilan birga bo‘lganda muloyim muomalada bo‘lish talab qilinadi. Albatta, bola biron-bir harakat bilan muloqat qilishga intilsa, biron-bir ovoz chiqarsa, yoki qimirlamay qilayotgan muomalangizga e’tibor qilmasa ham shu zahotiyoq yana ham muloyimlik

bilan muomalani davom ettirish kerak[3,45-b].

Mavhum tafakkur maktab yoshidagi davrlarda avval sodda shakldagi mavhum tafakkur ya’ni mavhum tushunchalar shaklidagi tafakkur rivojlanadi. Maktab o‘quvchilari turli fanlar: matematika, fizika, tarix asoslarini o‘zlashtirishlari lozim. Har qanday fikr yuritish faoliyatining bu boshlang‘ich va dastlabki shakllari mavhum tafakkur bilan birga uning ta’siri asosida rivojlanib ilgarigidek o‘zgarib va takomillashib boradi. Bola tug‘ilganidayoq tafakkur qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Tafakkur bolaning o‘sib, bilim va tajribalarining ortib borishi jarayonida rivojlanadi. Bola avval tashqi olamni va undagi narsalarni sezish va idrok qilish orqaligina biladi. Bunday bilish bolaning ana shu narsalar bilan bo‘lgan aktiv faoliyati davomida tobora takomillashib boradi. Narsalar bilan qanchalik ko‘p munosabatda bo‘lganlari sari bu narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlik tomonlarini payqay boshlaydi. Keyinchalik bolalar o‘xshash narsalarni umumlashtira boshlaydi. Kichik yoshdagi bolalarning tafakkurlari o‘z-o‘zicha emas, balki kattalarning rahbarliklari asosida rivojlna boshlaydi. Katta odamlar bolalarning shu paytgacha orttirgan bilimlariga asoslanib ularga o‘zlari mustaqil ravishda bilolmaydigan tushunchalarni bilimlarni aytib tushuntirib beradilar. Ana shu tariqa bolalar o‘zlarining individual faoliyatlarini orqali bo‘lishi mumkin bo‘lgan ayrim narsalarni va ayrim tushunchalarni emas, balki butun insoniyat tomonidan yaratilgan tushunchalarni hamda mantiqiy fikr qilish formalarini ham egallab ola boshlaydilar[4, 56-b].

Bolalarda tafakkuri ular 1 yoshga to‘lib 2 yoshga qadam qo‘ygan davrdan boshlab namoyon bo‘la boshlaydi. Ana shu davr mobaynida birinchidan, bolalar anchagina tushunish tajribasiga ega bo‘lgan bo‘lsalar, ikkinchidan, nutqlari ham chiqqa boshlaydi. Kichik yoshdagi bolalar idrok qilayotgan narsalarning ichki va eng muhim xususiyatlarini ham aks ettira olmaydilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar mustaqil harakatlari davomida atrofdagi turli narsalar bilan bevosita tanishishlari ularda bu narsani bevosita taqqoslash, analiz qilish va nihoyat umumlashtirish kabi fikr qilish protseslarini vujudga keltiradi va takomillashtiradi. Bolaning bog‘cha yoshidagi davrida uning erkin harakat qilish maydoni, yasli yoshdagi davrga nisbatan juda ham kengayib ketadi. Bu esa tafakkurning rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘z tajribalarida ko‘p narsalarga ichki xususiyatlari bilan ham qiziqa boshlaydi. Shu sababli ularda juda ko‘p savollar paydo bo‘ladi. Bu shubhasiz tafakkurni aktiv va jadal rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug‘ilishi ular tafakkurining aktivlashayotganidan darak beradi. Odatda har qanday tafakkur protsessi biron narsaga tushuna olmaslik, biror narsadan taajjublanish, hayron qolish natijasida hosil bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘z tafakkurida ayni shu chog‘da idrok qilib turgan narsalargagina emas, balki ilgari idrok qilib turgan narsalarga tayana oladilar. Bolalar tafakkurining xarakterli xususiyatlaridan biri ular tafakkurining hamon konkret obrazli

bo‘lishidir. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining mulohazalarida abstrakt tushunchalarga emas, balki konkret faktlarga asoslanadi. Shuning uchun ular abstrakt tusda berilgan oddiy vazifalarni hal qila olmaydilar. Lekin shunga qaramay bog‘cha yoshidagi bolalarda, xususan, katta guruh bolalarida ayrim narsa va hodisalarning muhim belgilariga qarab umumlashtirish qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Bog‘cha bolalar turli rasmlar solingan qog‘oz bilan o‘ynash protsessida umumlashtirishga o‘rgana boshlaydilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar uchun narsalarning eng muhim belgilari ularning qo‘llanishidir.

Bog‘cha yoshidagi bolalar tafakkurini o‘sirishda ularning inteliktual qiziqishlaridan foydalanish lozim[1, 34b].

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar o‘zlarining normal tengdoshlaridan o‘z tafakkurining rivoji salbiy, o‘z tafakkurining konkretligi, umumlashtirish jarayonlarining sustligi bilan ajralib turadi. Yordamchi maktablarda ta’limning saralash usullaridan foydalanish turli bolalarni qiziqtira oladigan ko‘rgazmali materiallardan o‘rinli foydalanish asosida tafakkurni birmuncha shakllantirish, rivojlantirish, korreksiyalash mumkin.

Xulosa qilib aytganda inson tafakkuri boshqa ruhiy jarayonlar bajarishga kuchi yetmagan narsalarga ham kuchi yetadi. Inson tafakkuri orqali idrok qilinmagan narsalarni bila oladi. Har bir inson atrof-olamni tafakkur jarayonlaridagina chuqar bilishi mumkin. Bizning sezgi a’zolarimiz kuchi yetmaganda bevosita tafakkurga murojaat etamiz. Tafakkur asosida bosh miya sharlarining tahlil-tasnif qilish faoliyati yotadi. Shu bilan birga tafakkur asosida 1-signallar tizimi ta’sirida 2–signal tizimining hosil bo‘lishi yotadi. Kishilarning aqliy faoliyati aqliy jarayonlar tafakkur jarayonlari asosida yuzaga keladi ya’ni taqqoslash, tahlil-tasnif abstraksiyalash, umumlashtirish, konkretlashtirish jarayonlari asosida umumiyligi psixologiyada bat afsil ma’lumot berilgan bo‘lsada, har biri haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. Tahlil shunday bir tafakkur qilish jarayoniki, bunda biz fikran narsalarni ayrim qismlarga, ayrim bo‘laklarga ajratamiz. Tahlil qilish orqali biz narsalarning ichki bog‘lanishlarini, ularning mohiyatini aks ettiramiz. Biz ongimizda juda ko‘p narsalarni tahlil qilib ko‘rshimiz mumkin. Tahlilning teskarisi bo‘lgan tafakkurning keyingi jarayoni tasnidir. Tasnid qilishda biz tahlil qilish vaqtida ayrim bo‘laklarga ajratilgan narsalarning qismlarini fikran birlashtirib, bir butin holatga keltiramiz. Tahlil va tasnid bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayonlardir. Tafakkurning mustaqilligi, kengligi aqlning chuqurligi, fikrlarning egiluvchanligi, tezligi, tanqidiyligi har bir shaxsning o‘ziga xos xislatlarini belgilaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. V.S. Rahmonova “Defektologiya va lagopediya asoslari”. T.2004 y
2. S. Dangalov «Tiflopedagogika tarixi». Toshkent. O‘qituvchi.2010y

3. Muzaffarova, X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ish xususiyatlari. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5).
4. Muzaffarova, X. (2022). Maxsus maktablarda imkoniyati cheklangan bolalarni tanlab olishda differensial yondashuv. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5).
5. Muzaffarova, X. (2021). Inklyuziv ta'limni amaliyotga joriy qilish masalalari. *Scienceweb academic papers collection*.
6. Muzaffarova, X. (2021). Horijiy mamlakatlarda aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan ishlar mazmuni. *Scienceweb academic papers collection*.
7. Muzaffarova X. (2021). Ta'lim–tarbiya jarayonida innovatsion usullardan foydalanishda o'qituvchining mahorati. *Scienceweb academic papers collection*.